

**Манба ва фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Ўзбекистон Республикасининг "Мақтабгача таълим ва тарбия тўғрисида"ги ЎРҚ-595-сонли қонуни. Электрон манба: <https://lex.uz/uz/docs/4646908?ONDATE2=27.04.2021&action=compare>
2. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. 50-модда. Электрон манба: <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Кичик ёшдаги болаларни тарбиялаш ва таълим бериш бўйича иккинчи бутунжаҳон конференцияси очилиш маросимидаги нутқи. Электрон манба: <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-respublikasi-prezidentining-kichik-yoshdagi-bolalarni-tarbiyalash-va-talim-berish-bojicha-ikkinchi-butunzhahon-konferentsiyasi-ochilish-marosimidagi-nutqi>
4. Фрѐбель Ф. Педагогические сочинения. / Ф.Фрѐбель; пер. И.Д.Городецкой. 2-е изд. – М.: Книгоиздательство К.И.Тихомирова, 1913. Том 1. Воспитание человека. – 359 с.
5. Дьюи Д. Школа и общество [Текст]. / Д.Дьюи. – М.: Работник просвещения, 1925. – 127 с.
6. Торндайк Э. Принципы обучения, основанные на психологии. / Э.Торндайк. – М.: Издательство Юрайт, 2023. – 270 с. (Антология мысли). ISBN 978-5-534-14262-4.
7. Философские основы «элементарного образования». И.Г.Песталоцци. / В.А.Рыбин. // *Вопр. философии*. 2006. № 7. С. 74-83. – Библиогр. С. 83.
8. Вахитов К.И. Роберт Оуэн. Учебное пособие. – М.: Издательско-торговая корпорация «Данников и Ко», 2004. – 44 с.
9. Вальдорфская педагогика: Антология. / Под ред. А.А.Пинского. – М.: Просвещение, 2003. – 494 с.
10. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги маълумотлари.



### OLIV TA'LIM XIZMATLARI SIFATINI OSHIRISHDA AUTSORSINGNING O'RNI

**Rejapov Xayrillo Xikmatullayevich -**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti  
Moliya va kredit kafedrasi mudiri, dotsenti, PhD

[doi https://doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss4/a47](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss4/a47)

**Annotatsiya.** Maqolada autsorsingning mohiyati va oliy ta'lim tizimida qo'llash yo'nalishlari o'rganilgan. Shuningdek, autsorsing asosida ta'lim sifati va autsorsing xizmatlarini shakllantirishning tashkiliy shakllari, uni rivojlantirish yo'nalishlari tahlil etilgan. Mamlakat oliy ta'lim muassasalarida autsorsing markazlar tashkil etish va ularning vazifalarini aniq belgilash asosida rivojlantirish yo'nalishlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'lim xizmatlari, mehnat, mehnat bozori, autsorsing, ta'lim xizmatlari, ta'lim sifati, innovatsiya, malaka, qobiliyat.

### РОЛЬ АУТСОРСИНГА В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ

**Режапов Хайрилло Хикматуллаевич -**

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека,  
заведующий кафедрой Финансы и кредита, доцент, к.э.н.

**Аннотация.** В статье рассматривается сущность аутсорсинга и его применение в высшем образовании. Также анализируются качество образования на основе аутсорсинга и организационные формы формирования аутсорсинговых услуг, направления его развития. Освещены направления развития центров аутсорсинга в высших учебных заведениях страны на основе установления и четкого определения их функций.

**Ключевые слова:** образование, высшее образование, услуги высшего образования, труд, рынок труда, аутсорсинг, образовательные услуги, качество образования, инновации, навыки, умения.

### THE ROLE OF OUTSOURCING IN IMPROVING THE QUALITY OF HIGHER EDUCATIONAL SERVICES

**Rejapov Khayrillo Khikmatullaevich -**

National University of Uzbekistan named after  
Mirzo Ulugbek, Head of the Department of  
Finance and Credit, Associate Professor, Ph.D.

**Annotation.** The state considers the essence of outsourcing and its application in higher education. It also analyzes the quality of education based on outsourcing and organizational forms of formation of outsourcing services, the direction of its development. The directions for the development of outsourcing centers in higher educational institutions of the country are highlighted on the basis of the establishment and clear definition of his functions.

**Key words:** education, higher education, higher education services, labor, labor market, outsourcing, educational services, education quality, innovations, skills, abilities.

**Kirish.** Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimidagi islohotlar samardorligini yanada oshirish bugungi kunda dolzarb masalalardan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "Oliy ta'lim tizimidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan" majlisida asosiy ustuvor vazifalardan biri "o'quv jarayonini bozor talablariga moslashtirib, ishlab chiqarish bilan uzviyligini ta'minlash va talabning o'z ustida ishlashi uchun muhit yaratish"[1] hisoblanadi. Ushbu vazifalarni bajarishda oliy ta'lim tizimida autsorsing xizmatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy autsorsing tizimi oliy ta'lim muassasasini rivojlantirish vositasi sifatida nafaqat universal va jamoatchilik, davlat organlari, kichik va o'rta biznesning tijorat tuzilmalar vakillari bilan hamkorlik doirasida ta'lim muassasasining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan muammoli vazifalarni kompleks hal etishga xizmat qilishi mumkin. Jamoatchilik, davlat organlari, kichik va o'rta biznesning tijorat tuzilmalari.

XXI asrda jahon xo'jaligida raqobat kurashining tobora kuchayishi natijasida mamlakatlar mehnat bozorida ish beruvchilar tomonidan ishlab chiqarish jarayonlarini innovatsion rivojlanish yo'lga o'tkazishi oliy ta'lim xizmatlari bilan mehnat bozori o'rtasidagi munosabatlardagi chuqur tarkibiy o'zgarishlarni namoyon bo'lishiga olib keldi. Jumladan, mehnatni tashkil etishning yangi shakllarining vujudga kelishi ish beruvchilar tomonidan tegishli lavozimlar bo'yicha kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablarining ortishiga olib keldi. Natijada oliy ta'lim xizmatlari orqali kadrlar tayyorlashning sifat ko'rsatkichlarini taqqoslashtirish zarurati ortdi.

Yuqorida keltirilgan holatlar oliy ta'lim xizmatlari va mehnat bozorlari o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishda yangicha yondashuvlarni shakllanishiga olib keldi. Oliy ta'lim xizmatlari bozorida autsorsing munosabatalarini rivojlanishi ham aynan ushbu jarayonlar sababli namoyon bo'ldi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqot ishlaridan oliy ta'lim tizimida autsorsingdan foydalanishning asosiy yo'nalishlari mexanizmi va o'zaro munosabatlarini ayrim jihatlarini tadqiq etilgan. Iqtisodchi V.Sinyaevning tadqiqot ishlarida qurilish xizmatlarida, logistika xizmatlarida autsorsingning zamonaviy marketing konsepsiyalariga bag'ishlanganligi [2, b. 324], S.Lepixinaning ilmiy ishlarida professional ta'lim tizimida autsorsingni o'rni va ahamiyati o'rganilgan[3, b.163].

N.D.Klikunov, V.L.Shapovalovlarning tadqiqot ishlarida oliy ta'lim muassasasida markazsizlashtirish, nazorat qilish va autsorsingning roli tahlil etiladi va ulardan oliy ta'limda boshqaruv tizimini samarali boshqarish usullaridan biri sifatida foydalanish taklif etilgan[4, b. 35-42].

Rossiyalik iqtisodchi olim R.S.Kruchininaning "Концептуальные основы приведения системы образования к запросам, потребностям рынка труда" nomli o'quv qo'llanmasida ta'lim tizimidagi autsorsing munosabatlari kompetensiyalarini shakllantirish vositasi sifatida uning mohiyati, modellari va ahamiyati yoritib berilgan[5, s. 26-34].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Oliy ta'lim xizmatlari va mehnat bozori o'rtasidagi munosabatlar bo'yicha mavjud bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish asosida qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraktsiyalash, ma'lumotni guruhlash, analiz va sintez usullaridan keng foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Tahlillarga ko'ra, oliy ta'lim xizmatlari va mehnat bozori o'rtasidagi munosabatlarning o'zaro rivojlanishi jarayonlarida autsorsing oliy ta'lim muassasalari bilan ish beruvchi yoki iste'molchi o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq ixtisoslashuvni kuchaytirish orqali tashqi manbalardan foydalanish samardorligini oshirishni anglatadi. Jumladan, ta'lim autsorsingini o'z amaliyotiga joriy etgan oliy ta'lim muassasasi o'zining ichki imkoniyatlaridan yuqori darajada samarali foydalanish hisobiga hamkorlik aloqalarini rivojlantirish imkonini beradi. Shu bilan birgalikda, oliy ta'lim xizmatlariga autsorsing munosabatlarini joriy etilishi bitiruvchilarning bandligini oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ta'lim autsorsingi – bu ta'lim tizimi uchun tashqi resurslarni jalb etishning innovatsion usuli va ta'lim texnologiyasi, yangi iqtisodiy amaliyotda ishlaydigan yo'naltirilgan ta'lim muhiti hisoblanadi. Ta'lim sohasida noodatij funksiyalar turlari ortib bormoqda. Ushbu funksiyalarni bajarish ixtisoslashgan xususiy tashkilotga o'tkazilib autsorsing qilinmoqda.

Ta'lim sohasida autsorsing obyektlari quyidagilar hisoblanadi:

- ta'lim muassasalariga yaqin bo'lgan binolar hududlarini ko'rsatish va tozalash xizmatini tashkil etish;
- oliy ta'lim muassasalari va uning barcha hududida ovqatlanish joylarini tashkil etish;
- xavfsizlik xizmatlarini ko'rsatish;
- oliy ta'lim muassasalari obyektlariga texnik xizmat ko'rsatish;
- oliy ta'limni tashkil etishda transport xizmatini ko'rsatish;
- oliy ta'lim muassasalari xodimlariga maishiy xizmat ko'rsatish;
- oliy ta'lim muassasalariga axborot xizmati va boshqalar.

Ta'lim autsorsingi mohiyati shundaki, ta'lim muassasi barcha ichki resurslarni asosiy yo'nalishlarga qaratish imkoniyatini oladigan ta'lim faoliyatidir. Bu boshqalarni qo'llab-quvvatlash orqali mumkin vazifalarni professional hamkor autsorser, ya'ni

ta'lim subyektlariga xizmat ko'rsatuvchi provayder uchun vazifalarni nazorat qilish huquqi va erishish yo'llari haqida xabar beradi.

Bir martalik epizodik bo'lgan oddiy xizmat va qo'llab-quvvatlash xizmatlaridan farqli o'laroq kasbiy ta'lim outsorsing funksiyalari oliy malakali professional tomonidan uzatiladi hamda vazifalari amaliy yo'naltirilgan ta'lim va uning infratuzilmasi uzoq muddatli shartnoma asosida amalga oshiriladi. Bu outsorsing bo'yicha xizmatlar oluvchining professional moslashuvi darajasini oshirishga, asosiy vakolat sifatlarini yaxshilashga va infratuzilmani rivojlantirishga va ixtisoslashgan kompetensiyalarni rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Ta'lim rivojlanishining ushbu bosqichida yangi ta'lim muassasalarining mintaqaviy darajasini yaratish kerak. Sohada ta'lim outsorsingi modelini ishlab chiqish va eksperimental sinovdan o'tkazish, kichik biznes, moliyaviy savodxonlik va iste'mol bilimlari uning maqsadi bo'lishi kerak. Bunday "Amaliy iqtisodiyot va tadbirkorlik" innovatsion tuzilmasi ta'lim outsorsingi markazi bo'lishi mumkin. Markazning vazifalari quyidagilardan iborat:

- ta'lim tizimlari va jarayonlarida pedagogik xodimlar va o'qituvchilarning raqobatini ta'minlash;
- oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiy-amaliy yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish;
- aholining turli guruhlari uchun mavjud ijtimoiy va iqtisodiy ta'lim dasturlarini to'liq bozorini yaratish;
- barcha hududlarda iqtisodiy ta'lim xizmatlarining tarqalishini kengaytirish.

Ta'lim outsorsingi natijasining o'sishida, butun iqtisodiyotda ta'lim tizimi samaradorligining intellektual kapitali ifodalanadi. Outsorsierlarning qiziqishi obyektlar funksiyalarining muhim qismi hisoblanadi.

Oliy ta'lim outsorsing modeli quyidagilarni ta'minlashi zarur hisoblanadi: davlat boshqaruvi organlari o'rtasida ham, ta'lim muassasalari o'rtasida ham malaka bo'yicha mintaqaviy bozorlarni muvofiqlashtirish.

Innovatsion boshqaruv va ta'lim outsorsingi bilimlarni tashkilot va har bir xodim uchun daromadga aylantirish imkonini beradi. Hamkorlar, mijozlar ilmiy tadqiqot tashkilotlari bilan bilim almashinish, innovatsion faoliyatni kengaytirish ta'limga moddiy va intellektual resurslarni jalb etish imkonini beradigan biznes tuzilmalari bilan ta'lim hamjamiyatini yaratish imkonini beradi. Outsorsing tashkiliy jihatdan tijorat o'rtasida rasmiy va norasmiy bilim almashish mexanizmi bo'lib, tuzilmalar va oliy ta'lim muassasalarining quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

- boshqaruv byurokratizatsiyasini hamda boshqaruv darajalar sonini kamaytiradi;
- xodimlarning jamoada ishlash qobiliyatini shakllantiradi, ularning manfaatlarini himoya qiladi;
- tavakkalchilik uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga, ijrochilarni o'ziga jalb etishga tayyor bo'lgan rahbarlarni aniqlaydi. O'z g'oyalari, maqsadlariga erishish uchun o'z ishlarini sifatli amalga oshirishni tashkillashtiradi;
- funksiyalarni diversifikatsiya qilish asosida hamkorlikni boshqarish tuzilmalarini yaratadi;
- nazariy bilimlarni amaliy kompensatsiyalarga aylantiradi;
- tashkilotlar o'rtasidagi innovatsiya oqimining shaffoqligini ta'minlaydi.

Jahon amaliyoti tahliliga ko'ra, ta'lim xizmatlari outsorsingini shakllantirishda 1-jadvalda keltirilgan tashkiliy shakllardan keng foydalaniladi.

1-jadval

**Oliy ta'lim tizimida outsorsing munosabatlarini rivojlantirishning tashkiliy shakllari**

Tashkiliy tuzilma	O'zaro ta'sir mexanizmi	Funksiyalarni qayta taqsimlash vakolatlari topshirilgan davlat tashkilotlari va muassasalar
Chiziqli	Bevosita nazorat	Oliy ta'lim muassasalari
Chiziqli-funksional	Funksional birliklar o'rtasida vazifalarni taqsimlash	Uyushmalar
Bo'linmali tashkiliy tuzilma	Funksiyalarni o'zaro muvofiqlashtirish	Uy xo'jaliklari
Matritsaviy	Tartibga solish	OAV
Tarmoqli	Maxsus shartnomalar asosida tartibga solish	Ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi boshqa tashkilotlar

*Manba:* muallif tomonidan tuzilgan.

Outsorsing tashkiliy jihatdan tijorat o'rtasida rasmiy va norasmiy bilim almashish mexanizmi bo'lib, tuzilmalar va oliy ta'lim muassasalarining quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi [5, 26].

- boshqaruv byurokratizatsiyasini hamda boshqaruv darajalar sonini kamaytiradi;

- xodimlarning jamoada ishlash qobiliyatini shakllantiradi, ularning manfaatlarini himoya qiladi;

- tavakkalchilik uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga, ijrochilarni o'ziga jalb etishga tayyor bo'lgan rahbarlarni aniqlaydi. O'z g'oyalari, maqsad-

lariga erishish uchun o'z ishlarini sifatli amalga oshirishni tashkillashtiradi;

- funksiyalarni diversifikatsiya qilish asosida hamkorlikni boshqarish tuzilmalarini yaratadi;

- nazariy bilimlarni amaliy kompensatsiyalarga aylantiradi;

- tashkilotlar o'rtasidagi innovatsiya oqimining shaffofligini ta'minlaydi.

Jahon amaliyoti tahliliga ko'ra, oliy ta'lim muassasasining tashqi outsorserlar, ya'ni hamkorlar bilan o'zaro ixtisoslashgan holda avtonom shaklda tashkil etishning agrar, sanoat, inklyuziv, xalqaro, tarmoq, davlat korporatsiyalari va okrug o'quv modellari o'zaro farqlanadi (2-jadval).

2-jadval

**Avtonom oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashqi outsorserlar bilan ixtisoslashgan holda tashkil etish modellari**

Model nomi	Predmeti	Subyeksi
Agrar	Qishloq hududlaridagi yosh fermerlarni tayyorlash markazlari	Tuman, shahar, viloyat hokimiyatlari, klasterlar
Sanoat	OTM laboratoriyalari va sanoat korxonalari	Savdo-sanoat palatasi, aksiyadorlik jamiyatlari, sanoat uyushmalari
Inklyuziv	Imkoniyati cheklangan, nogiron fuqarlarni kasbga o'qitish markazlari, dam olish va davolanish maskanlari	Jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi, ta'lim va sog'liqni saqlash hayriya fondlari, ijtimoiy himoya markazlari
Xalqaro	OTM huzuridagi hunarmandchilik va san'at, pedagogik mahoratni oshirish markazlari	Hunarmandar uyushmalari, Qo'shma korxonalar, OTMlar kengashi
Tarmoq	Turli darajadagi ta'lim tashkilotlari, sanoat treninglari uchun birlashtiruvchi ta'lim majmualari	Shahar, tuman, viloyat hokimliklari, hududiy ta'lim boshqarmalari va aksiyadorlik jamiyatlari
Davlat korporatsiyalari	Biznes infratuzilmasi, jumladan, biznes inkubatorlar, venchur fondlar, ilmiy jamiyatlar, kasaba uyushmalari	Savdo-sanoat palatasi, tadbikorlar va ta'lim tizimining boshqaruv organlari
Okrug o'quv modeli	Universitet shaklidagi turli darajadagi uyushmalari, ta'lim muassasalari, davlat unitar korxonalari	Davlat unitar korxonalari, oliy ta'lim muassasalari, Savdo-sanoat palatasi, kichik va o'rta biznes uyushmalari

*Manba:* muallif tomonidan tuzilgan.

Jahon mehnat bozorida kadrlar yetkazib berishning samarali vositasi sifatida Outsorsing raqobatbardosh deb tan olingan. Adekvat javobini, sifat kafolatlari va raqobatbardoshligini shakllantirish uchun iqtisodiyot va mehnat bozorlari ehtiyojlarini ta'minlaydigan tegishli hamkor vositalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Tahlillarga ko'ra, mamlakat ta'lim tizimida outsorsingni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi sifatida davlat boshqaruvi organlari, oliy ta'lim muassasalari va boshqa mustaqil jamoat birlashmalari o'rtasida tegishli vakolatlarni o'zaro taqsimlash bo'yicha shartnomalarni markazlashtirilishi hisoblanadi. Bunda oliy ta'lim muassasalarining kasbiy yo'nalishlari va mutaxassisliklar bo'yicha ixtisoslashuvi jarayonlari chuqurlashadi.

Shunday qilib, oliy ta'lim xizmatlari bilan mehnat bozori o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda outsorsingni joriy etish tadbirkorlik sohasida intellektual salohiyatning ortishi, iqtisodiyot tarmoqlarida yangi qo'shilgan qiymatlarning yaratilishi, jamiyat turmush farovonligini oshirishi bilan birgalikda oliy ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyasida ko'zlangan maqsadlarga qisqa muddatlarda erishish imkonini beradi. Taraqqiy etgan amaliyot tahliliga ko'ra, ushbu mamlakatlarda har 72 soatda iqtisodiyot tarmoqlaridagi bilimlar hajmi qariyb ikki barabarga ortadi. Jumladan, rivojlangan mamlakatlar

mehnat bozorida band bo'lgan oliy ma'lumotli xodimlarning 55 foizi har yili o'z kasbiy malakasini oliy ta'lim muassasalari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar orqali oshirib boradi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotida bilimni tijratlashtirish orqali barqaror innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishning muhim sharti hisoblanadi. Bunday natijaga erishilishida oliy ta'lim xizmatlari va mehnat bozori o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda outsorsingni muvaffaqiyatli joriy etilishi katta ahamiyat kasb etadi.

Fikrimizcha, keyingi yillarda mamlakatimiz oliy ta'lim xizmatlari bilan mehnat bozorlari o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash va ularning uzoq muddatli istiqbolda barqaror rivojlanishini ta'minlashda oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga outsorsingni joriy etish lozim bo'ladi. Bunda oliy ta'lim muassasalarida outsorsing faoliyatlarini moliyaviy, kadrlarni boshqarish, talabalarni o'qitish, marketing va yuridik sohadagi yo'nalishlarini umumlashgan holda tashkil etilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz (3-jadval). Bu orqali oliy ta'lim xizmatlari bilan mehnat bozori o'rtasida outsorsing munosabatlarini kompleks rivojlantirishga erishiladi.

Taklif etilayotgan oliy ta'lim muassasasida tashkil etish yo'nalishlarida oliy ta'lim muassasasining yuridik, baxgalteriya, marketing, kadrlar bo'limlari va fakultetlarining o'zaro mutanosiblikdagi faoliyati ta'minlanishi lozim bo'ladi.

## Oliy ta'lim muassasasida outsorsingni tashkil etish yo'nalishlari

Outsorsing turi	Outsorsing vazifalari	Mas'ul oliy ta'lim muassasasi bo'limi
Huquqiy	- oliy ta'lim muassasasi(OTM), jumladan, fakultetlar, kafedralar faoliyatining qonunga muvofiq amalga oshirilishi yuzasidan huquqiy asoslarni shakllantirish va ularni himoya qilish	Yuridik bo'lim, OTM yuristi
Moliyaviy	- OTMning buxgalteriya hisobini yuritish; - OTM faoliyatini iqtisodiy jihatdan tahlil qilish (daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi nisbatlarni baholash); - OTMning moliyaviy faoliyatini nazorat qilish; - OTM xodimlari, ishchilari va professor-o'qituvchilariga ish haqi to'lash; - OTMning moliyaviy resurslarini nazorat qilish va ularni boshqarish	OTM buxgalteriya bo'limi
Marketing	- marketing tadqiqotlarini o'tkazish; - ish beruvchilar bilan bitiruvchilarni tayyorlash va ularni bandligini ta'minlash bo'yicha o'zaro manfaatli shartnomalar tuzish; - mehnat bozoridagi ishchi kuchiga va uning kasbiy malakasiga bo'lgan talablarni tadqiq etish; - OTMni reklama qilish	Marketing bo'limi
Kadrlarni boshqarish	- OTM personalini shakllantirish, yuqori malakali professor-o'qituvchilarni izlab topish va ularni ishga yollash; - OTMda faoliyat yuritayotgan xodimlar va professor-o'qituvchilarning malakalarini oshirish bo'yicha dasturlarni ishlab chiqish;	Kadrlar bilan ishlash bo'limi
Talabalarni o'qitish	- talabalarga o'qitiladigan fan dasturlarini ish beruvchilar bilan o'zaro kelishgan holda tasdiqlash; - talabalarga o'qitilayotgan fanlarni bevosita amaliyot bilan bog'liqligini ta'minlash; - talabalar bilimini nazorat qilish va uni baholab borish; - talabalarining malakaviy amaliyotlarini bevosita ish beruvchi korxonalar bazalarida tashkil etish	Fakultetlar

*Manba:* muallif tomonidan tuzilgan.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, keyingi yillarda mamlakatimizda oliy ta'lim xizmatlari bilan mehnat bozori o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni rivojlantirishda outsorsingni joriy etish uzoq muddatli istiqbolda oliy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish bilan birgalikda mehnat bozoridagi yuqori malakali

kadrlarga bo'lgan ehtiyojni samarali qondirish imkoniyatini yaratadi. Jumladan, mamlakatimiz oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi ortib, oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reyting ko'rsatkichlarini yaxshilashga erishiladi.

**Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. <https://president.uz/uz/lists/view/4424>
2. Синяев В.В. Современная концепция маркетинга в сфере логистики аутсорсинга строительных услуг // Сборник научных статей под ред. С.В. Карповой, 466 с. — М.: Издательство «Палеотип», с.324, 2013.
3. Лепихина Светлана Николаевна Образовательный аутсорсинг как институт функциональной интеграции субъектов сферы профессионального образования в условиях формирования Российской экономики компьютерно-сетевое знание // Векторы благополучия: экономика и социум. 2020. №4 (39). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/obrazovatelnyy-outsorsing-kak-institut-funktionalnoy-integratsii-subektov-sfery-professionalnogo-obrazovaniya-v-usloviyah> (дата обращения: 27.02.2022).
4. Кликунов Н. Д., Шаповалов В. Л. Роль децентрализации, контроллинга и аутсорсинга в эффективном управлении ВУЗом // <https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/697/1/UM-2004-02-07.pdf>
5. Кручинина Р.С. Концептуальные основы приведения системы образования к запросам, потребностям рынка труда. Учебное пособие. – Калуга: КГУ им. К.Э. Циолковского, 2012. - 38 с. blob: <https://web.telegram.org/46dcbf43-acfe-4aa5-906a-356f569d5cbe>